

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 6

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 581 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 30-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Oliy ta'lim islohotlarida – muhandislik maktablarini institutsional rivojlantirish asoslari	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Xufiyona iqtisodiyot mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda	20
Muxiddin Kalonov	
"Yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish	24
Muhammadiyeva Maftuna	
Oliy ta'lim tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati	27
Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ish beruvchilar va yonlanuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni aniq sotsiologik baholash.....	31
Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich	
Перспективы развития средств размещения в экологическом туризме на охраняемых природных территориях Узбекистана.....	40
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlari bozorining rivojlanish borasidagi asosiy tendensiyalari va muammolari	49
To'irov Yunus Alamovich	
Kichik biznes subyektlarida innovatsionraqabatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali import o'rnini bosish strategiyasini shakllantirish istiqbollari.....	55
Rustamov Alisher Raxmataliyevich	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda innovatsion usullardan foydalanish.....	62
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Tijorat banklarida bank risklarini boshqarishning strategik ahamiyati.....	67
Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich	
Klaster iqtisodiy subyekt sifatida: mohiyati va tasnifi.....	71
Usmonov Sharofiddin Pazlitdinovich	
Tijorat banklari tomonidan yoshlar tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning nazariy-uslubiy jihatlari.....	76
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalari xalqaro tasnifi: nazariya va tendensiya.....	81
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishda metodologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar	86
Jiyanova Nargiza Esanboyevna	
Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish mezonlari va omillari.....	93
Z. Abdikarimova, S. Madaminov	
Savdo korxonalari boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	97
Q. J. Mirzayev, Sh. M. Islomov	
Sociological Assessment of Migration Processes	102
Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli	
Current issues of business management in the context of digitalization of the economy	112
Safarov Bakhtiyor Djurakulovich, Kadirova Zulhumor Namazovna, Dadabaev Kuchkor Abdullaevich	
Методические основы маркетинговых стратегий акционерных обществ.....	118
Эркинов Шахзод Баходир ўғли	



Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce	125
Abirkulova Sohijjamol	
Improving the Conceptual Framework for Modernizing the Tax System (Using the Example of Uzbekistan)	130
Bakhrom Nomazov	
Ayollarning inson kapitalini rivojlantirishda kraudfanding platformasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	136
Bozorova Saxobat Abdujapparovna	
Evaluating the Environmental Sustainability of Uzbek Firms in the Green Economy.....	142
Nurbek Xalimjonov Ulugbek ugli	
O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanishida inson kapitalining roli	148
Eshmirzayev Faruddin Ilhomjonovich, Salimova Zaxro Sobirjon qizi	
Agroklasterlarda asosiy vositalarni modernizatsiyalash va ta'mirlash xarajatlarini tahlil qilish	155
G'afforov Ilhomjon Ilyosjonovich, Mirzayev Behzod Abdug'ofur o'g'li, Narzullayev Nodirbek Aziz o'g'li	
Improving the Practice of Increasing the Effectiveness of Managing Innovation Processes in Commercial Banks	160
Juraev K. T.	
Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanish	164
Mamasoatov Dilshod Ravshanovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish va yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda solliqlarning roli va ahamiyati.....	169
Madraximov Baxtiyorjon Ortiqboy o'g'li, Rizayev Xabib Abduraufovich, Namazov Sa'dulla Namozovich	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tishning joriy holati tahlili.....	175
Rahmatullayeva Dilbar Olimovna	
Buxoro viloyatida savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholash uslubi-yatini takomillashtirish..	181
Raxmatov Akmal Anvar o'g'li	
The Contribution of Transport in the Development of Tourism Industry (Case Study: Uzbekistan).....	187
Rofeeva Rukhshona Shavkatovna	
Yoshlarning sayohat manzillarini tanlashdagi omillar	192
Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich	
Improving the Effective use of Funds From Taxes and Fees in Kashkadarya Region	196
Shakhzod Zokhidov	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyatni boshqarish	202
Kadirova Shaxnoza Ilhomovna	
Yangi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash masalalari.....	207
Usmonov Baxodir Suvonqulovich	
Temir yo'l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'llari	211
Nasimov Shavkat Vasiyevich	
O'zbekistonda banklararo raqobat.....	219
Zunnunova Xulkar Muxtorovna	
O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta'minlashni takomillashtirish	225
Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna, Kuchkarov Sanjar Baxtiyarovich	
Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari	229
Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov	
Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati.....	233
Aripov Oybek Abdullayevich, Madiyorov Shavkatbek Muxtarovich	



Aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to'g'risida hisobot tuzishning bosqichlari.....	237
Eshonqulov Azamat Abdiraximovich	
Davlat moliyaviy nazoratining turlari va shakllari.....	241
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
Tog' turizmini rivojlantirish manfaatlarini yo'lida investitsiya resurslarini to'plash mexanizmlarini ishlab chiqish samaralari	245
Xidirov Alimardon Dagarovich	
The Main Role of the Teacher While Managing the Classroom and Some Aspects of Teaching English	248
Nilufar Turdiyeva	
Davlat xususiy sherikchilik faoliyatining menejment funksiyalari tizimida muvofiqlashtirishning ahamiyati	252
Suleymanov Farrux Raximjon o'g'li	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o'zgarishlar dinamikasi	256
G. Sh. Qo'ldosheva, A. J. Toshboyev	
Логистика в Азии: опыт и перспективы оптимизации	260
Каюмова Паризода	
Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlari ..	266
G. I. Abdulxamidova	
Повышение эффективности использования местных налогов и сборов в Кашкадарье: международная перспектива	272
Shahzad Zokhidov	
Financial and Credit Support for Investment and Innovative Developing Activities of a Tourist Enterprise	275
Rozokov Mukhammadaziz Mansurovich	
Роль контроля качества по хранению и переработке зерна в обеспечении продовольственной безопасности Республики Узбекистан	282
Холбекова Дилобар Расулжон кизи	
O'zbekistonda mahalla boshqaruvi tizimi faoliyatini takomillashtirish masalalari.....	289
Gafurov Ubaydullo Vaxabovich	
Kichik biznes va tadbirkorlik sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishning xorijiy tajribasi	296
Dilnoza Meyliyeva	
Cross Cultural Preblems in International Business Negotiations	301
Xoldarova Fariza Tuxtabayevna	
Yengil sanoatning raqobatbatdosh hududiy-ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribani qo'llash	304
Haydarova Shoxista	
Konchilik sanoati korxonalarining innovatsion jarayonlarni rivojlantirish xususiyatlari	310
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
Korxonalarda risk boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish va inson resurslaridan foydalanish istiqbollarini takomillashtirish	315
Tashpulatova Muniraxon Mahmudovna	
Spin korxonalar – texnologiyalarni tijoratlashtirishda muhim tuzilma sifatida	320
O'rinov Dilshodjon Axmadjonovich	
Mintaqalarda makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni takomillashtirish strategiyasi	324
Xolbekova Feruza Rasulovna	



Iqtisodiy o'sish va aholi daromadlari o'rtasidagi bog'liqlikning nazariy asoslari.....	329
Hasanova Nigora Hasan qizi	
Современное состояние маркетинга на рынке ценных бумаг Республики Узбекистан.....	334
Юлдашев Жамшид Аббарович	
Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsion loyihalarni moliyalashtirish	340
S. A. Karabayev	
Axborot telekommunikatsiya tarmog'i korxonalarida korporativ boshqaruv samaradorligi	334
Temirov Anvarxon Abdulazizxonovich	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o'zgarishlar dinamikasi	347
G.SH.Qo'ldosheva ¹ , A.J.Toshboyev ²	
Yengil sanoatning raqobatbatdosh hududiy-ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribani qo'llash	351
Haydarova Shoxista	
Konchilik sanoati korxonalarining innovatsion jarayonlarni rivojlantirish xususiyatlari	357
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
Korxonalarda risk boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish va inson resurslaridan foydalanish istiqbollarini takomillashtirish	362
Tashpulatova Muniraxon Mahmudovna	
Spin korxonalar - texnologiyalarni tijoratlashtirishda muhim tuzilma sifatida	367
O'rinov Dilshodjon Axmadjonovich	
Yoshlarning sayohat manzillarini tanlashdagi omillar	371
Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich	
Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institusional tahlili.....	375
Bahridinov Viqorjon Akbar o'g'li	
O'zbekistonda investitsion faoliyat, uni moliyalashtirishning zamonaviy ko'lamlari.....	380
va o'ziga xos xususiyatlari	
Kuvatova Oliya Sheraliyevna, Husenov Muhriddin Bahriddinovich	
Xalqaro moliya institutlari faoliyatining davlatlar rivojlanishiga ta'siri (Yevropa Taraqqiyot va Tiklanish banki misolida).....	384
Muxtorov Jahongir Muxtor o'g'li	
Davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga muvofiq daromadlar hisobini tashkil etish	390
Meliboyev Akmal G'aybullayevich	
Qurilish materiallari ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy ishlab chiqarish fondlarining t uzilishi hamda hajmi	394
Muxtasar Karimova Isroiljon qizi	
Ayollar tadbirkorligi nazariyasining takomillashuvi xususida.....	398
Sharofiddinova Gulnoza Iloxomjonovna	
O'zbekistonda soliq ma'murchiligida joriy etilgan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish masalalari	403
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
Soliq majburiyatlari ijrosini takomillashtirish yo'llari	408
Mirzaaliyeva Gulchehra Abduvali qizi	
Сравнительное исследование финансовой отчетности, подготовленной в соответствии с мсфо и нсбу.....	413
Эргашева Шахло Тургуновна	



Innovatsion bank mahsulotlarini tashkil etishda xorijiy mamlakatlar tajribasi va raqamli transformatsiyaning ro'li.....	420
Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Egamberganov Mirzabek Odilbek o'g'li	
Mintaqa mehnat bozori ishchi kuchiga talab va taklifni boshqarish vositasi sifatida	428
Umarov Oqil Omiljonovich, Abdullayev Umidjon G'afurovich	
Development of a Methodology for Assessing the Brand Equity of Higher Education Institutions	435
Zufarova Nozima Gulamiddinovna	
O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining o'rni	442
Avezov Ibrohim Ilhomovich	
Optimizing Digital Pedagogy through Database Applications and Data Mining for a Sustainable Digital Economy	448
Dilfuza Kuzikulova	
Xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish	454
Muradullayeva Nafisa Dilmurad qizi	
Talaba va o'quvchilarning kamolotida ma'naviy - ma'rifiy tadbirlarning ahamiyati	458
Quldoshev Asliddin Tursunovich	
To'qimachilik korxonalarining innovatsion faoliyatini baholash uslubiyo'tini takomillashtirish	461
Ikramov Maqsad Muratovich	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni moliyalashtirish	467
To'irov Yunus Alamovich	
Mamlakatimizda pillachilik biznesini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash holatining tahlili	474
Turgunov Odilbek Maripovich	
Analysis of the investments in clean energy projects in the developing countries.....	478
Fayziyev Samandar Sobir ogli	
Chakana savdo korxonalarida innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari	483
Kodirova Zulxumor Namazovna, Safarov Baxtiyor Djurakulovich	
O'zbekistonda raqamli bank xizmatlarining qo'llanilishida xorij tajribasining o'rni	489
Yo'ldosheva Iroda Ibodulla qizi	
O'z o'zini band qilishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini o'lchashning asosiy yondashuvlari	493
Tursunxo'jayeva Gulnoza Jamoliddin qizi	
Tibbiy xizmatlarni rivojlantirishning muhim xususiyatlari	497
Axrorova M.F., Mirzayev Q.J.	
Qoraqalpog'iston respublikasida mikrokredit bank xizmatlarining rivojlanish holati iqtisodiy tahlili	502
Serjanov Aymurat Medetbaevich	
Mamlakatda qo'shilgan qiymat solig'ining yutuqlari va kamchiliklari, uni soddalashtirish hamda takomillashtirish yo'nalishlari	508
Mingturayev Abdusalom Abdumalik o'g'li, Orziqulov Ilyos Ixtiyor o'g'li, Boboqulov Jasur Avazovich, Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	
Chet el kompaniyalarining "doimiy muassasa" konsepsiyasi mezonlariga yondashishni baholash hamda unga taaluqli foydani aniqlash masalalari	514
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Необходимость оценки и управления рисками в коммерческих банках в условиях устойчивого экономического развития	521
Каримов Шамсиддин Акрам угли	



Turistik xizmatlar bozorining rivojlanishida xorij tajribasini o'rganish.....	527
Ochilova Ozoda Toshquvatovna	
O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda budget siyosati tahlili	533
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
Soliq ma'murchiligida joriy etilgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish masalalari	540
Davletov Po'lat Torabayevich	
Banklarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish ispaniya tajribasi	546
Egamova Maxfurat Esanovna	
Oliy ta'lim muassasalarini xalqaro tasnifining vujudga kelishi ilg'or tajribalari.....	551
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
Soliq siyosati va uning strategiyasiga oid ilmiy tadqiqotlar tahliliy sharhi	557
Ismatov Xolbuta Begmatovich	
O'zbekiston xizmatlar bozorini rivojlantirishda uning xalqaro, mintaqaviy hamkorlik tashkilotlariga a'zoligining o'ziga xos jihatlari	564
Cho'ponov San'at Otanazarovich	
Analysis of the Regulatory Sandbox Concept and Its Application Under Environmental Regulation	571
YANG Xuan	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida budget xarajatlarini raqamli platformalar	576
orqali optimallashtirish masalalari Baxranov Bo'ston Axmedovich	



O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA BUDJET SIYOSATI TAHLILI

Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna

erkin tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni davlat budjetidan qo'llab-quvvatlash, bu boradagi budjet jarayonini tahlil qilish va uning amaliy ahamiyatini asoslashga xizmat qiladigan tavsiyalar, xulosalar hamda takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: kambag'allik, budjet siyosati, davlat budjeti, budjet xarajatlari, ijtimoiy himoya, ta'lim, sog'liqni saqlash.

Abstract: The article provides recommendations, conclusions and proposals that serve to support the measures to reduce poverty in our country from the state budget, analyze the budget process in this regard, and justify its practical importance.

Key words: poverty, budget policy, state budget, budget expenditures, social protection, education, healthcare.

Аннотация: В статье даны рекомендации, выводы и предложения, которые служат для поддержки мер по сокращению бедности в нашей стране за счет государственного бюджета, анализируют бюджетный процесс в этой связи и обосновывают его практическую значимость.

Ключевые слова: бедность, бюджетная политика, государственный бюджет, расходы бюджета, социальная защита, образование, здравоохранение.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar yo'nalishlari tarkibida kambag'allikni qisqartirish masalasi kun tartibiga chiqqaniga ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, bu uning yangi masala ekanligini anglatmaydi. O'zbekiston sharoitida kambag'allikka qarshi kurashishga yangi emas balki kechiktirilgan masala sifatida qaralmoqda.

So'ngi yillarda yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

Hukumatimiz tomonidan kambag'allikni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli chora-tadbirlarni davlat budjetidan moliyalashtirishda manzillilik tamoyili muhim xususiyat kasb etmoqda. Mablag'larni aniq mezonlar asosida tanlab olingan aholi qatlamiga yetib borishi mablag'lardan foydalanish samaradorligini ta'minlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, davlat budjeti mablag'laridan kambag'allikka qarshi kurash tadbirlarini moliyalashtirishda aniq qoidalarni ilmiy asosda ishlab chiqish masalasi dolzarb hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Rus olimi Ye.Andreyeva va boshqalar kambag'allikni qisqartirishda davlat xarajatlarning ikkita rolini qayd etib o'tadi. Uning fikricha, davlat nafaqalarini berish kambag'allikka qarshi kurashda ikki yo'nalishda ta'sir etishi lozim:

- davlat nafaqalarini oluvchi maqsadli qatlam o'rtasida kambag'allikni kamayishi;
- mamlakatda umumiy kambag'allik darajasining pasayishi.



Bu borada amalga oshirilgan hisob kitoblarga ko'ra, nafaqa oluvchi oilalar o'rtasida kambag'allik 49 foizdan 29 foizga ijobiy o'zgargan. Mamlakat darajasida hisoblaganda esa, pul daromadlari bo'yicha umumiy kambag'allik miqyosi 13,4 foizdan 12,8 foizga kamaygan[1].

Shuningdek, D.Bichkov davlatning ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari borasida fikr bildirib sug'urtaviy va sug'urtasiz metodlarni ham keltirib o'tadi[2]. Unga ko'ra, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash quyidagi turlarda amalga oshirishini nazarda tutadi:

- budjetdan tashqari jamg'armalar orqali majburiy ijtimoiy sug'urta badallarini to'lab berish;
- budjetning ijtimoiy qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari – a) kategoriyali (aholi daromadlari inobatga olinmaydi) imtiyoz va to'lovlar; b) aholini manzilliy ijtimoiy himoya qilish (daromadlar inobatga olingan holda).

Keltirib o'tilgan tadqiqotlar xulosalarida davlatning ijtimoiy siyosati kambag'allikni mikro va makrodarajada boshqarish uchun muhim ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, kategoriyali va manzilliy ijtimoiy himoya faoliyati ham faol va nafaqa ijtimoiy siyosat ko'rinishlarini o'zida aks ettiradi, desak xato bo'lmaydi.

Bu kabi ilmiy xulosalarni o'zbekistonlik tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida ham ko'rish mumkin. Jumladan, D.Mirxodja maktab ta'limini moliyalashtirishda vaucherli tizimni qo'llashni taklif etadi[3]. Ushbu metodni qo'llash orqali kam daromadli aholi qatlamlari ham xususiy maktablarda to'lovlarni davlat hisobidan amalga oshirish imkoniyati yuzaga kelishini qayd etadi. Shu bilan birga, davlat maktablarida "stullar yetishmasligi"ni bartaraf etish, oilalarning hududlar kesimida mobilligini ta'minlash kabi vazifalarni hal etishi qayd etib o'tiladi.

M.Umurzaqova o'zining ilmiy ishida aholini ijtimoiy himoya qilishda sug'urtaning roliga e'tibor qaratadi. Ushbu tadqiqotda ham davlatning majburiy ijtimoiy sug'urta amaliyoti sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirish imkoniyatini kengaytirishni qayd etsa, boshqa jihatdan ijtimoiy himoyaning mustahkam shakllaridan biri vujudga kelishiga urg'u berib o'tadi[4].

Dots. X.Boyev esa, ijtimoiy siyosatni amlaga oshirishda davlatning muhim rolini izohlashga xarakat qiladi[5]. Uning xulosasiga ko'ra, aholini ijtimoiy himoyalash asosida ko'rsatilgan bepul xizmatlarni umumiy ijtimoiy xizmatlardagi ulushini oshirishni tavsiya etadi. Jumladan, bular sirasiga ta'lim, sog'liqni saqlash va nafaqa-xo'rlarga ayrim maishiy xizmatlarni kirishini qayd etib o'tadi.

Fikrimizcha, kambag'allikka qarshi kurashishda tizimlilikni ta'minlash uchun faol va nafaqa ijtimoiy siyosat elementaridan oqilona foydalanish iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, mablag'lardan foydalanish samaradorligiga erishish uchun kambag'allikka qarshi kurashni doimiy ravishda baholab borishni taqozo qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning maqsadi bo'lib, O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda olib borilayotgan budjet siyosatining tahlili asosida ilmiy-nazariy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi. Tadqiqotda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlili, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish natijalari bilan belgilandi.

Mavzuni o'rganish davomida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash kabi usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro tajribada kambag'allik muammo sifatida e'tirof etilgan davrlardan boshlab O'zbekistonda uni turlicha atab kelingan. Shu bilan birga turli ko'rinishda e'tirof etilgan kambag'allikni qisqartirishdagi asosiy muammo uni tan olish bo'lgan bo'lsa, keyingi o'rindagi yirik masala sifatida budjet mablag'larining cheklanganligi sabab qilib ko'rsatilgan.

Mazkur masalaga to'xtalib o'tgan Jahon banki mutaxassislari A.Fozzard va boshqalar budjet siyosatini o'z ichiga olgan kambag'allikni qisqartirish strategiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etishda quyidagilarga e'tibor berish kerakligini ta'kidlagan[6]:

- xarajatlarni tahlil qilish sifatini oshirish;
- o'rta istiqboldagi budjetni shakllantirish;
- davlat moliyasini boshqarishning minimal standartlarini tadbiiq etish;
- sifatga e'tibor qaratish;
- keng ishtirokni rag'batlantirish.

Kambag'allikni qisqartirishda budjet siyosati ustuvorliklaridan foydalanish keng tarqalgan amaliyot bo'lib, bu birdaniga bir nechta usullarni o'z ichiga qamrab olishi mumkinligi bilan ham jozibadordir.

Bizningcha, kambag'allikni qisqartirishda budjet siyosatini davlat budjeti xarajatlari tarkibini tahlil qilishdan boshlashimiz maqsadga muvofiq.



1-jadval. Davlat budjeti xarajatlari tarkibi to'g'risida ma'lumot (trln so'mda).[7]


№	Ko'rsatkichlar	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
1	Xarajatlar jami	49,3	79,7	118,0	144,1	188,6	236,7
2	Ijtimoiy xarajatlar	27,2	42,9	63,5	74,2	92,6	117,7
3	Iqtisodiyot xarajatlari	5,3	8,5	18,5	16,7	21,7	34,1
4	Investitsiya xarajatlari	3,2	5,4	7,0	18,8	29,3	27,8
5	Davlat boshqaruvi, adliya va prokuratura va sud organlarini saqlash xarajatlari	1,9	3,1	5,3	7,8	8,5	11,5

1-jadvalda davlat budjeti xarajatlari tarkibi to'g'risida ma'lumot keltirilgan bo'lib, unga ko'ra 2017–2022-yillarda davlat budjeti xarajatlari doimiy o'sib borish tendensiyasiga ega. Bizningcha, davlat budjeti xarajatlarning bunday yuqori sur'atlarda o'sishi budjet siyosatida tub islohotlar hamda o'zgarishlari amalga oshirilayotganligini anglatadi. Xarajatlar o'sishini uning tarkibi bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak 2022-yilda 2017-yilga nisbatan ijtimoiy soha xarajatlari 4,3 barobarga, iqtisodiyot xarajatlari 6,4 barobarga, investitsiya xarajatlari 8,7 barobarga, davlat boshqaruvi, adliya va prokuratura va sud organlarini saqlash xarajatlari

6 barobarga o'sganligini kuzatishimiz mumkin.

Fikrimizcha davlat budjeti xarajatlarning barcha tarkibiy qismlari bevosita kambag'allikni qisqartirishga xizmat qiladi.

Xususan, davlat budjeti xarajatlari tarkibida eng katta ulushga ega bo'lgan ijtimoiy soha xarajatlari (1-rasm) kambag'allikni qisqartirish bilan bir qatorda uning salbiy oqibatlarini oldini olish yoki yumshatishga xizmat qiladi.



1-rasm. Davlat budjeti xarajatlari ulushi tahlili[8]

Bu esa ijtimoiy soha xarajatlari va uning tarkibini alohida tahlil qilish zaruriyatini yuzaga keltirishi sababli uni quyida batafsil tahlilini amalga oshiramiz. Shuning uchun 1-jadval doirasida e'tiborimizni ijtimoiy soha xarajatlardan boshqa xarajatlarga qaratamiz.

Kambag'allikni qisqartirishga eng katta hissa qo'shishi mumkin bo'lgan budjet xarajatlari bu iqtisodiyot xarajatlari. Iqtisodiyot xarajatlari davlatning davlat budjeti orqali iqtisodiyotga ta'sirini ta'minlovchi eng asosiy xarajatlar yo'nalishi hisoblanadi.

Iqtisodiyot xarajatlari tarkibiga suv xo'jaligi ekspluatatsiyasi xarajatlari, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish, tabiatni muhofaza qilish hamda uy-joy kommunal ishlar kiritiladi[9]. Xarajatlar tarkibidan ko'rishimiz mumkinki, iqtisodiyot xarajatlari kambag'allikni qisqartirishda bevosita va bilvosita ta'sirga ega. Ushbu xarajatlar bir tomondan aholining yashash sha-



roitlarini yaxshilashga xizmat qilsa boshqa tomondan ish o'rinlarini yaratishda muhim hisoblangan resurslarni yetkazib berishga xizmat qiladi.

Davlat budjeti xarajatlarining keyingi eng muhim va yirik guruhi investitsiya xarajatlaridir. Investitsiya xarajatlari 2017-yildan 2023-yilga qadar o'tgan besh yil mobaynida 8,7 barobarga o'sganligi uning juda muhim xarajat guruhiga aylanganini bildiradi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash kerakki investitsiya xarajatlarining o'sishi 2020-yilda yuz bergan pandemiya sharoitida ko'plab sog'liqni saqlash obyektlarini qurilishi hisobiga ortgan. Shu bilan birga, 2021-yilda uning miqdori 29,3 trln so'mga yetgan va 2022-yil natijalariga ko'ra 27,8 trln so'mni tashkil etmoqda. Bizningcha, investitsiya xarajatlari kambag'allikni qisqartirishda yaqin va uzoq istiqbolda o'zining o'rniga ega.

Xususan, yaqin istiqbolda investitsiya xarajatlari qurilish orqali ko'pgina ish o'rinlarini yaratib kambag'allikni qisqartirishga xizmat qilsa, uzoq istiqbolda infratuzilmani yaxshilash hamda yangi ijtimoiy soha obyektlarini foydalanishga topshirish orqali iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga o'zining hissasini qo'shadi.

Davlat boshqaruvi, adliya va prokuratura hamda sud organlarini saqlash xarajatlarining o'sishi ushbu tizimlarda mehnat qiladigan xodimlarning oylik ish haqlarini oshirilishi hamda yangi davlat boshqaruvi organlarining tashkil etilishi orqali yuz bergan. Xususan, davlat boshqaruvi, adliya va prokuratura hamda sud organlarini saqlash xarajatlariga davlat budjetidan 2017-yilda

1,9 trln so'm yo'naltirilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yilda 11,5 trln so'mni tashkil qilgan. Mazkur xarajat davlat organlari xodimlarining ish haqlari oshirilishi hamda yangi ish o'rinlarini yaratilishi orqali davlat boshqaruvida sifatning ortishi albatta kambag'allikni qisqartirishga ko'mak beradi.

Bundan tashqari, davlat boshqaruvi, adliya va prokuratura hamda sud organlari o'z faoliyati bilan barcha sohalarga jumladan, ular orqali amalga oshirilayotgan kambag'allikni qisqartirish siyosatining barcha jabhalariga va bu to'g'ridan to'g'ri ta'sirini o'tkazishi bilan ham muhimdir.

Shu bilan birga, ijtimoiy xarajatlarning kambag'allikni qisqartirishdagi ahamiyatini izohlash maqsadida quyida uning tahlilini amalga oshiramiz.

2-jadval. Ijtimoiy soha xarajatlari tarkibi to'g'risida ma'lumot. (trln so'mda)[10]

Ko'rsatkichlar	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Jami ijtimoiy xarajatlar	27,2	42,9	63,5	74,2	92,6	117,7
shundan:						
Ta'lim	16,0	20,7	33,5	30,0	39,6	50,3
sog'liqni saqlash	7,3	9,4	15,0	19,4	23,3	27,3
madaniyat va sport	0,8	1,3	2,4	2,3	3,6	4,3
fan	0,3	0,4	0,7	0,8	1,1	1,5
nafakalar, moddiy yordam va kompensatsiyalar	2,2	3,2	4,7	8,2	10,8	19,4
aholi bandligi darajasini oshirish xarajatlari	0,4	0,6	1,2	1,3	0,8	0,7
Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga subsidiyalari				9,1	11,3	11,1
uy-joylar qurish dasturida qatnashayotgan banklar uchun kredit liniyalari	0,2	3,6	4,1	1,9	0,7	1,0

Bizningcha, 2-jadval ma'lumotlarini tahlil qilish orqali quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- ijtimoiy soha xarajatlari boshqa xarajat guruxlari kabi o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Jumladan, ijtimoiy soha xarajatlari 2022-yilda 117,7 trln so'mni tashkil etgani holda 2017-yilga nisbatan 4,3 barobarga ortgan;

- ta'lim xarajatlari ijtimoiy soha xarajatlarining asosiy qismini tashkil qilgani holda o'sib borish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Birgina 2020-yilda (30,0 trln so'm) pandemiya sababli miqdor jihatidan 2019-yilga (33,5 trln so'm) nisbatan past bo'lgan bo'lsada 2022-yilda 50,3 trln so'mni tashkil etib yuqori o'sish tendensiyasiga qaytgan.



- sog'liqni saqlash xarajatlari ham ijtimoiy soha xarajatlari tarkibida salmoqli o'rinni egallagan va 2017–2022-yillarda doimiy o'sib bormoqda. Xususan, 2017-yilga nisbatan (7,3 trln so'm) 2022-yilda sog'liqni saqlash sohasiga 3,7 barobar ko'proq xarajat qilingan va 27,3 trln so'mni tashkil etgan.

- madaniyat va sport hamda fanga xarajatlari ham o'sib bormoqda. Jumladan, 2017-yilga nisbatan 2022-yilda ushbu soha xarajatlari qariyb 5 barobarga o'sgan;

- ijtimoiy soha xarajatlari tarkibida nafakalar, moddiy yordam va kompensatsiyalar xarajatlari eng yuqori o'sish tendensiyasiga ega xarajat moddalaridan biri bo'lib, 2022-yilda 19,4 trln so'mni tashkil etib 2017-yilga nisbatan qariyb 8,8 barobarga o'sgan.

- aholi bandligi darajasini oshirish xarajatlari ham ijtimoiy soha tarkibidan joy olgan bo'lib, nobarqaror o'sish sur'atlariga ega. Xususan,


2017-yilda mazkur yo'nalishda 0,4 trln so'm xarajat amalga oshirilgan bo'lsa,

2022-yilga kelib bu 0,7 trln so'mga yetgan. Lekin 2019 va 2020-yillarda mazkur maqsadlarga mos ravishda 1,2 va 1,3 trln so'm yo'naltirilgan. Bizningcha ushbu yillarda aholi bandligi darajasini oshirish xarajatlari ortishi bevosita ishsizlik darajasining ortishi hamda pandemiya bilan bog'liq;

- 2020-yildan boshlab Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga subsidiyalar ajratilayotgan bo'lib, mazkur xarajatni amalga oshirish uchun 2021 va 2022-yilda mos ravishda 11,3 va 11,1 trln so'm yo'naltirilgan;

- uy-joylar qurish dasturida qatnashayotgan banklar uchun kredit liniyalari xarajat yo'nalishi ijtimoiy soha xarajatlari tarkibidagi aloxida yo'nalish bo'lib, unda ham nobarqaror o'zgarishlar kuzatilgan. 2017-yilda mazkur xarajat yo'nalishiga 0,2 trln so'm yo'naltirilgan bo'lsa, 2018-yilda bu miqdor 3,6 trln so'mga, 2019-yilda 4,1 trln so'mga yetgan. 2020-yilda mazkur xarajat 1,9 trln so'mgacha kamaygan bo'lsa 2022-yilda 1,0 trln so'm yo'naltirilgan.

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, ijtimoiy soha xarajatlari aksariyat tarkibiy qismlari o'sib borish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Ulardagi o'sishning turlicha ekanligi umumiy ijtimoiy soha xarajatlari tarkibidagi xarajatlarning ulushini o'zgarishiga olib kelgan. Bunday o'zgarishlar esa kambag'allikni qisqartirishda budjet vositalarining eng yirigi bo'lgan ijtimoiy sohada olib borilayotgan siyosatning yo'nalishini aniqlashga xizmat qiladi. Buni ijtimoiy soha xarajatlari tarkibining umumiy xarajatlardagi ulushini (2-rasm) tahlil qilish orqali aniqlashimiz mumkin nazarimizda.



2-rasm. Ijtimoiy soha xarajatlari ulushi tahlili[11]

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2017–2022-yillar oralig'ida ijtimoiy soha xarajatlari tarkibidagi xarajatlari yo'nalishlarining umumiy harajatlardagi ulushida o'zgarishlar yuz bergan. Jumladan, ijtimoiy soha xarajatlari tarkibida eng katta ulushga ega bo'lgan ta'lim xarajatlari jami ijtimoiy soha xarajatlardagi ulushi 2017-yilda 58,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda 42,8 foizga yoki 2017-yilga nisbatan qariyb 16 foizga kamaygan. 2022-yil davomida mazkur xarajat yo'nalishi mos ravishda 41,5 foizni tashkil etgan xolda 2017-yilga nisbatan 17,2 foizga kamaygan. Shunday bo'lsada, bizningcha ta'lim xarajatlari ulushining bunday kamayishi unga bo'lgan e'tiborni pasayganidan emas balki bu xarajat yo'nalishi umumiy ijtimoiy soha



va boshqa budget xarajatlardan kamroq o'sayotganidan deb baholash lozim. Fikrimizni ta'lim xarajatlarning miqdor jihatidan doimiy o'sib borayotgani bilan asoslash mumkin.

Sog'liqni saqlash sohasi xarajatlarning umumiy ijtimoiy soha xarajatlardagi ulushi 2017-yilda 26,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib 25,2 foizga, 2022-yil davomida 22,7 foizni tashkil etmoqda. Mazkur xarajat yo'nalishida bir qarashda 2017 va 2021-yillar oralig'ida katta o'zgarish yuz bermagandek tuyulsada (farq -1,8 foiz) aslida xarajatlarning ulushi 2018-yilda 2017-yilga nisbatan 5 foizga, 2019-yilda esa 3,4 pasaygan. Faqatgina 2020-yilda boshlangan pandemiya oqibatlarini bartaraf etish uchun budgetdan mablag'lar ajratilganligi bois sohaga ajratilgan mablag'larning jami ijtimoiy sohaga ajratilgan mablag'lardagi ulushi 2020-yilda 26,1 foizga, 2021-yilda 25,2 foizga yetdi. Bizningcha sog'liqni saqlash sohasiga berilayotgan e'tibor kambag'allikni qisqartirishning asosiy jihatlarini o'zida namoyon qiladi. Chunki ta'lim va sog'liqni saqlash inson kapitalini shakllantirishda juda muhim va muqobili yo'q sohalar hisoblanadi. Shu ma'noda sog'liqni saqlash xarajalarining ijtimoiy soha xarajatlardagi ulushi doimiy o'sib borishi lozim deb hisoblaymiz.

Madaniyat va sport xarajatlarning jami ijtimoiy soha xarajatlardagi ulushi 2017–2022-yillarda muntazam o'sib borish tendensiyasiga ega. Jumladan, 2017-yilda xarajatlarning ulushi 2,8 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda

3,9 foizga yetib, ulushi 1,1 foizga ortgan. Fikrimizcha, madaniyat va sport xarajatlari ta'lim va sog'liqni saqlashga bilvosita yordam beradigan yo'nalishlar bo'lib ularni rivojlantirilishi aslida ta'lim va sog'liqni saqlashni yaxshilashga xizmat qiladi. Bu o'rinda mazkur xarajatlarning ulushining ortishi ta'lim va sog'liqni saqlash kabi inson kapitalini shakllantirishda va oshirishda yordamchi vazifalarini bajaradi.

Nafaqalarga xarajatlarni kambag'allikni qisqartirishda budget siyosatining 2017–2022-yillar ijtimoiy soha tarkibidagi eng asosiy vositasi sifatida aytib o'tish kerak nazarimizda. Chunki nafaqalar miqdori va masshtabini kengaytirish ayniqsa pandemiya tufayli kambag'allik chegarasiga kelib qolgan aholi qatlamini kambag'allikdan saqlab qolishda katta rol o'ynadi va bugungi kunda ham uning ahamiyati pasaygan emas. Xususan, 2017-yilda nafaqalarning jami ijtimoiy sohadagi ulushi 8,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2018 yilda 7,6 foizni, 2019-yilda 7,5 foizni tashkil etib pasaygan, lekin 2020-yilda 11,0 foizni, 2021-yilda 11,7 foizni hamda 2022-yil davomida 17,4 foizni tashkil etmoqda. Bizningcha, ijtimoiy nafaqalar kambag'allikni qisqartirishda ko'proq "mudofaa" vazifasini bajaradi. Ya'ni mavjud kambag'allikni qisqartirishga emas ko'proq uni ortishiga yo'l qo'ymaslikka xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda ijtimoiy nafaqalar oilalar va fuqarolar xayotining ma'lum bir davrida (masalan kasallik yoki ko'p bolali oilalarning farzandlari voyaga yetguniga qadar) kambag'allik "qopqoniga" tushib qolmasliklari uchun vaqtinchalik mablag' bilan ta'minlashda yaxshi samara beradi. Ijtimoiy nafaqalarning miqdor va ulush jihatidan ortib borishi hamda kambag'allikni qisqartirishdagi muhim vosita ekanligini inobatga olib, quyida ularni tarkiban alohida taxlil qilish orqali fikrimizni xulosalaymiz.

Bundan tashqari, 2-rasmda aholini kam ta'minlangan qatlamini qo'llab-quvvatlash yo'nalishinipg yana bir asosiy qismi bo'lgan aholi bandligini oshirish xarajatlari ulushi kamayib borish tendensiyasiga egaligi aks etgan. Xususan, 2017-yilda aholi bandligini oshirish xarajatlarning jami ijtimoiy xarajatlardagi ulushi 1,6 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 0,9 foizni, 2022-yil davomida 0,6 foizni tashkil etmoqda. Bizningcha bunga sabab aholi bandligini oshirish bo'yicha boshqa yo'nalishlar masalan, subsidiyalashga o'tilayotganligidir. Fikrimizcha xaqiqatdan ham aholi bandligini oshirish uchun qisqa muddatga ishsizlik nafaqasi berishdan ko'ra manzilli va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan loyihalar xarajatlari qoplashga yo'naltirilgan subsidiyalash amaliyoti ko'proq samarali bo'ladi.

Kambag'allikni qisqartirishning yana bir muhim elementi albatta pensiya ta'minoti hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda ham mamlakatimizda salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2020-yildan boshlab, Pensiya jamg'armasi xarajatlari qoplash uchun budgetdan subsidiyalar ajratish amaliyoti yo'lga qo'yilgan bo'lib, uning 2020-yildagi jami ijtimoiy xarajatlardagi ulushi

12,3 foizni tashkil qilgan. 2021-yilda ham mazkur ulush 12,3 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yil davomida 9,8 foizni tashkil etmoqda. Bizningcha, pensiya ta'minoti bilan qamrab olingan qatlam, ya'ni pensionerlar doimiy ravishda kambag'allik chegarasida bo'ladigan qatlam hisoblanadi va ularni doimiy va manzilli qo'llab-quvvatlash orqali kambag'allikdan saqlab turish mumkin. Shuning uchun ham mazkur xarajat ulushining ortib borishi kambag'allikni qisqartirishda muhim ahamiyatga ega.

XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan hulosa qilib shuni aytish mumkinki mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish uchun budget siyosatidan foydalanishda quyidagi xarajat yo'nalishlariga asosiy ustuvorlik berilmoqda:

1. Inson kapitalini rivojlantirish yuzasidan ijtimoiy soha (shu jumladan, ta'lim va sog'liqni saqlash) xarajatlari;
2. Iqtisodiy o'sishning asosiy shartlaridan bo'lgan infratuzilmani yaratish uchun investitsiya va iqtisodiyot xarajatlari;



3. Aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiluvchi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash (masalan, subsidiyalash va kafolatlar tizimi) xarajatlari;

4. Mavjud kambag'allik darajasini oshishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ijtimoiy kam ta'minlangan va kambag'allik chegarasida bo'lgan aholiga pensiya va ijtimoiy nafaqalarga xarajatlar;

5. Barcha darajadagi kambag'allikni qisqartirish tadbirlarini samarali amalga oshirish uchun davlat boshqaruvi, adliya va prokuratura va sud organlari faoliyati xarajatlari.

Bizningcha, mazkur xarajat yo'nalishlari kambag'allikni qisqartirishda vosita sifatida tan olingan barcha yo'nalishlarni qamrab oladi va yaqin kelajakda mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirishga xizmat qiladi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Андреева Е., Бычков Д.Г., Фектистова О.А. Новые меры социальной поддержки семей с детьми: оценка государственных расходов//Финансовый журнал. – М., 2018. –№2. – С. 36–47.
2. Бычков Д.Г., Фектистова О.А., Андреева Е. Инвентаризация бюджетных мер в сфере социальной защиты населения: на пути к адресности системы мер социальной поддержки//Международный бухгалтерский учет журнал. – М., 2016. –№17. – С. 46–62.
3. Мирходжа Д.А. Ўзбекистонда мактаб таълимини молиялаштиришни такомиллаштириш: и.ф.б.ф.д. автореферати. – Т., ТДИУ. 2021. – 61 б.
4. Умурзакова М.Н. Ўзбекистонда аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишда тиббий суғуртани ривожлантириш истиқболлари: и.ф.б.ф.д. ... автореферати. – Т., ЎзМУ. 2021. – 57 б.
5. Боев Х.И. Аҳолини ижтимоий ҳимоялашни кучайтириш давлатни бош вазифаси//Иқтисод ва молия журнали. – Т., 2020. – №4 (136). – Б. 127-133.
6. Fozzard A., Holmes M., Klugman J., va Withers K. "A sourcebook for Poverty Reduction Strategies:Core techniques and cross-cutting issues". Интернет манба: www.documents.worldbank.org Мурожаат қилинган сана: 2023 йил 25 март 188–189 бетлар.
7. 1-жадвал Молия вазирлиги маълумотлари. Интернет манба: www.mf.uz Мурожаат қилинган сана 2023 йил 25 март.
8. 1-расм 1-жадвал маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.
9. Молия вазирлиги маълумотлари. Мурожаат қилинган сана 2023 йил 8 февраль. Интернет манба: www.mf.uz
10. 2-жадвал Молия вазирлиги маълумотлари. Интернет манба: www.mf.uz Мурожаат қилинган сана 2023 йил 25 март.
11. 2-расм 2-жадвал маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.
12. Ш.Мирзиёев. "Ўзбекистоннинг камбағалликни қисқартиришга қаратилган чоратадбирлар" тўғрисидаги маърузаси. 2020 й.
13. В.С.Сычева. «Бедность и её измерение», Социология:4М, 2012, №15 с.129
14. М.Пардаев, О.Пардаев. «Мамлакатимизда камбағаллик даражасини камайтириш йўллари». Логистика ва иқтисодиёт журнали 2020 йил.
15. Жумаев Н.Х., Раҳмонов Д.А. Жаҳон иқтисодиётининг янги инқирози – иқтисодий ҳаракатсизлик. 2020 йил 3 апрель. Манба: <https://www.review.uz>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

